



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

Til va adabiyot.uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 13-son



8-DEKABR

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI
KONSTITUTSIYASI KUNI

Maxliyo To'raqulova. Tazkiranavislik an'anasi va taraqqiyot tamoyillari.....	73
Dilshod Rajabov, To'xtamurod Rajabov. She'riyatda ko'chimlarning yuzaga kelish usullari, xususiyatlari va badiiyishni ko'rinishlari..	75
Marjona Xayrullayeva. Buxoro viloyat Vobkent tumandagi joy nomlari asosida shakllangan toponimlarning paydo bo'lishi..	77
Ibratbek Qurbanov. Maktabgacha ta'lif tashkilotlari direktorlarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning dolzab muammolari va yechimlari.....	80
Gulshan Musulmonova. "Zarbulmasali Sidqiy" asari qo'lyozmasi haqida.....	83
Berdibek Yusupov. Adabiy ta'lif jarayonida o'quvchilarining ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi.	85
Nigora Ruziyeva. Isajon Sulton romanlarida qo'llanilgan metaforaning leksik xususiyatlari.....	88
Maftuna Nurboyeva. Tilshunoslikda frazeologiya va uning tasnifiga oid tadqiqotlar tahlili	90
Hasan Gafforov. Gender in modern linguistics	93
Sitora Xasanova. Exploring linguoculturology: language, culture, and the concept of a cultural concept.....	95
Damira Suvanova. The investigation of taste adjectives in linguistics.....	97
Kakhramon Kuralov. Content and language integrated learning (clil) for future specialists in the field of natural sciences....	99
Кодиржон Мўйдинов. Фразеологизмы - одна из лингвистических единиц лексикона судебной речи.....	101

TAHLIL

Yo'ldosh Rahmatov. So'z ko'rki – maqol	103
Azamat Atayev. O'zbek tilidagi ayrim arabiy o'zlashmalarning etimologiyasiga doir	105
Latofat Tashmuhamedova. O'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili	107
To'ra Toshmuhammad Zarif. Hofiz Xorazmiy asarlarining matniy tadqiqi	109
Kurshida Ro'ziyeva. Abdulla Oripov asarlarida leksik sinonimlar.....	110
Moxichehra Muxammadiyeva. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridagi qush obrazlari	113
Dilruxon Abdilakimov. Cho'lpion ijodi zamondosh munaqqidlar nigozida.....	115
Dilshod Xursanov. Omon Matjon she'riyatida esxatologik motivlar badiiyati	118
Nargiza Pazltdinova. Alisher Navojyning mulamma' san'atiga asoslangan g'azali	120
Sapura Ne'matova, Akbar Jumanov. Bobur g'azallarida go'zallik talqini.....	123
Jahongir Turdiyev. "Lison ut-tayr" asarida me'rōj tavsiyi.....	126
Munira Akbarova. G'ayriodatiy birikmalar professor Nizomiddin Mahmudovning ilmiy qarashlarida.....	128

METODIK TAVSIYA

B.Xusniddinova. Bo'lajak logoped mutaxassislarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish	131
Nigora Umarova. O'zbek tili ta'limida savol o'quv topshirig'ining ahamiyati.....	133
Madina Alimova. Til o'rgatishda qo'llaniladigan metodlar haqida.....	136
Dilnura Avezova. Esse – o'quvchilarning kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi vosita.....	139
Oysuluv Musurmonkulova. Adabiy ta'limda o'quvchilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirish usullari	142
Nazarov Vahobjon. Multimedia va raqamlı texnologiyalarning chet tili o'qitish jarayoniga tatbiq etishning zaruriyati	145
Shaxnoza Muxtarova. Ona tilini rus tili fani bilan bog'liqlikda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari	148
Surayyo Muqumova. Ona tilini o'qitishda ta'lim tamoyillararo integratsiya	150
Gulruh Bozorova, Maysara Eshniyazova. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o'rganishda interaktiv metodlardan foydalanish..	152
S.Yuldasheva, S. Najiyeva. Didaktik jarayonida talabalar ijodkorligini rivojlantirish.....	156
Marxabo Xakimova. Tarbiyada qadriyat va ma'naviyatning o'rni va ahamiyati	158
Sh.Nizamova, Shaxnoza Ibrohimova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yozma nutq kamchiliklarini bartaraf etish yo'llari	159
Nodira Zikirova. The role of innovative technologies in the development of methodical training of teachers in general secondary educational institutions	162
Madina Dalieva. Term and its specific semantic characteristics	165
Shaxlo Maxkamova. Approaches and methods of teaching english grammar.....	168
Фарида Умарова. Методическая разработка на тему «Праздники. Как поздравить с чем-нибудь?»	171

TILSHUNOSLIK

Shaxnoza Djurayeva. Axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi birliklar	176
To'lqin Mardihev. O'zbek badiiy asarlarida vatan konseptining lingvomadaniy tahlil	177
Baxodir Suyunov. Tashqi tibbiy lakunalar	179
Oydin Nurullayeva. Parallel korpuslarda frazeologik birliklarning ifodalanishi.....	183
Sunnat Abdunabiiev. Arab tilshunosligida atamashunoslilik.....	185
Mahbuba Qobilova. Izohli lug'atlarda sotsial ma'noli leksemalarning semantikasi	189

MULOHAZA

Suxrob Saitov. O.Henry ijodi va milliy adabiy jarayoni.....	191
Saxatmurot Xurramov. Umumiyo o'rta ta'lif maktablarida boshqaruv mahorati muammolari	192

KICHIK TADQIQOT

Hulkar Jo'raqulova. Qoraqalpoq va o'zbek tilidagi frazemalarning qiyosiy tahlili	194
Muxlisa Sobirova. O'zbek ismlarining sotsialningistik xususiyatlari	195

shu xalq, vakili bo`lgan har bir yigit uchun muqddas burch, sharaflı vazifadir. O`zbek badiiy adabiyotlarida Vatanni himoya qilish shon-sharaf, burch ekanligi keng bayon etiladi. Masalan *Ona diyorimizning mana shunday mard, jasur ug`lonlari bor ekan, yurtimiz sarhadlari hamisha mustahkamdir sen mana shunday yigitlardansan Baxromjon. Vatan himoyachilari nomiga munosib bo`lgan insonlar hamisha yurt ardog`ida.* (59 -bet) Yurtimiz mustaqilligi, elimiz tinchligini asrashda jasorat ko`rsatganini eshitib yuragim hapqirardi[3,89].

Ona Vatan uchun jonini fido qilgan yigitlar... Bu ibora mustaqil mamlakatimiz chegaralarida. Vatan oldidagi o`z muqddas burchini o`tab, halok bo`lgan yigitlarga nisbatan qo`llaniladi. Vatanimiz, ona tuprog`imiz tinchligi va osoyishtaligini nihoyatda xushyorlik va ogohlilik bilan himoya qilish har bir yoshning muqaddas burchi ekanligini unutmasligimiz kerak. Masalan, *Vatanimiz tinchligi, xalqimiz, farzandlarimizning porloq, kelajagi uchun bo`lgan hujumda ko`plab dushmanlarni, ularni xufyona bazasi bormi, ini, pistirmasi bormi barchasini yakson qildik; U Vatan uchun, xalqimiz uchun, tinchligimiz uchun shirin jonini ayamadi.* Qasamyodiga sodiq, qoldi [3,155] kabi misollarda asosiy g`oya bu yurt tinchligi va osoyishtaligi uchun kerak bo`lsa o`zini qurban qilishgacha bo`lgan jasorat namoyon bo`ladi. Vatan hech qachon o`z qahramonini unutmadi.

Ko`pchilik badiiy asarlada Vatan tanho, yurt bittaligi keng ifodalanadi va uni hech qayerdan topaolmasligingiz, uni asrash buyuk meros ekanligi bayon etiladi. Masalan, *Dunyoni kezib, Ona vatandek yurt ko`rmadim. Buyuk merosni asrash, har birimizning burchimizdir*[4,58]. Shuningdek, Vatanning qanchalik muqaddas dargoh ekanligi donishmand xalqimiz tilida quyidagi misollarda keltiriladi. Masalan, *To tirik ekanman, yurtimning har bir qarichi tuprog`ini ko`zimga to`tiyo qilaman;* Vatanparvar bo`lish uchun, Vatan deya ko`krakka mushtlash shart emas.

Xullas, o`zbek tilining milliy-madaniy fondi o`ziga xos bo`lgan jihatlarga ega bo`lib, biz uning o`ziga xos bo`lgan tomonlarini yuqorida misollar orqali izohlashga harakat qildik. Albatta vatanni nafaqat falsafiy jihatdan qator o`xshatishlar orqali izohlanadi, qolaversa bu maskan sajdah kabi muqaddasligi bilan ham keng e`tirof etiladi. Shuningdek, inson obod qilgan joy vatan va uni himoya qilish barchanining asosiy burchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Абдулхай Носиров. Хикматлар хазинаси. – Т.: Янги аср авлоди, 1981.- 232 б.
- 2.Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание.– М.: Русские словари,1997. -416с.
- 3.Ватан - азиз, жасорат – мангу. Ўзбекистон Республикаси мудофаа вазирлиги; маънавият ва маърифат маркази. – Т.: Гафур Гулом номидаги НМИУ 2017, 1926.
- 4.Шерзод Ҳикматов Шунқорлар ватан таяни. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. –1526.
- 5.Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома. – Т.: Шарқ, 1990.- 524 б.

Baxodir SUYUNOV,
*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori (DSS)*

TASHQI TIBBIY LAKUNALAR

Annotatsiya: mazkur maqola o`zbek tilidagi tashqi tibbiy lakunar birliklar va ularni tibbiyat sohasiga tatbiq etish masalalariga bag`ishlangan. Maqola muallifi mavzuni yoritishda o`zbek, rus, ingliz, fransuz, nemis tili va boshqa xorijiy tillardagi ilmiy-nazariy manbalarga murojaat qilib, ulardan tahliliy asosda foydalangan va tashqi tibbiy lakunalarning o`ziga xos xususiyatlarini ochib bergen. Shuningdek, ushbu maqolada tibbiy terminlardagi lakunar birliklar aniqlanib, ularning o`zbek tili va boshqa tillar o`rtasida, ya`ni tillararo hodisa sifatidagi mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: kommunikatsiya, lakuna, fenomen, leksika, realiya, kategoriya, leksik birlik, komponententlik, etnomadaniyat, lingvomadaniy birlik, modellasshtirish.

Annotation: this article is devoted to the issues of external medical lacunar units in the Uzbek language and their application in the medical field. The author of the article refers to scientific and theoretical sources in Uzbek, Russian, English, French, German and other foreign languages, uses them on an analytical basis and reveals the features of external medical gaps. Therefore, this article identifies lacunar units in medical terms and explains their essence between Uzbek and other languages, i.e. as an interlinguistic phenomenon.

Key words: communication, gap, phenomenon, vocabulary, reality, category, lexical unit, competence, ethnosculture, linguocultural unit, modeling.

Абстрактрый: данная статья посвящена вопросам внешних медицинских лакунарных единиц в узбек-

ском языке и их применению в медицинской сфере. Автор статьи обращается к научно-теоретическим источникам на узбекском, русском, английском, французском, немецком и других иностранных языках, использует их на аналитической основе и выявляет особенности внешних медицинских лакун. Поэтому в данной статье выявляются лакунарные единицы в медицинских терминах и разъясняется их сущность между узбекским и другими языками, т.е. как интерлингвистическое явление.

Ключевые слова: коммуникация, лакуна, феномен, лексика, реальность, категория, лексическая единица, компетенция, этнокультура, лингвокультурная единица, моделирование.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikning til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarini o'rganuvchi dolzarb masalalaridan biri – bu madaniyatlararo kommunikatsiya (MK) hisoblanadi. Bu esa, ko'pincha, kommunikatsiya jarayonida o'zaro aloqaga kirishuvchi tomonlarning milliy-madaniy o'ziga xosligi bilan bog'liq.

Madaniyatlararo kommunikatsiya tomonlarning tili va madaniyati o'rtasidagi doimiy hamkorlik sharoitida amalgaloshadi va bunda muayyan til tizimi va madaniyatlararo har xillik, o'ziga xosliklar voqelanadi.

Madaniyat nazariyasida *lakuna* termini yordamida til va madaniyatlararo "madaniy masofa" saqlanib turadi. U umumgumanitar soha termini sifatida kommunikatsiya jarayonida yuzaga keladigan "har xillik", "mos kelmaslik", "lingvistik ojizlik", "ma'nosizlik", "farqlanish" kabi qator bir-biriga yaqin tushunchalarni ifoda etadi.

Xorijiy tilshunoslikda "lakuna" hodisasining yuzaga kelishi ayrim til va madaniyat fenomenlari universalligi (lingvistik va madaniy universallik) va ma'lum bir madaniyatda ushbu fenomenning taqdim etilmaganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, lakunar birliklar bir tilning o'zida ham kuzatilishi mumkin. Garchi ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan leksemalar mavjud bo'lsa-da, baribir til zaxirasida, uning leksik tizimida "bo'sh joylar", "to'ldirilmagan joylar" ko'p bo'ladi. Bunda tildagi muayyan tushunchalar aniqlanmagan, umumiste'molga kirmagan yoki qo'llanmagan bo'ladi.

Tashqi tibbiy lakunar birliklar tushunchasini ilm-fanda birinchilardan bo'lib qo'llagan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy hisoblanadi. U o'zining "Muhokamat-ul lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") asarida turkiy til bilan fors-tojik tilini o'zaro qiyosiy tahlil qilib, turkiy tildagi ayrim so'z va tushunchalarning fors-tojik tilida mavjud emasligini, ya'ni madaniy bo'shliq haqidagi ilk g'oyalarni ilgari surdi.

Masalan, "Va xo'blarning ko'z va qoshlari orasinki, **qabog'** derlar. Forsiyda bu uznning oti yo'qtur", "Va husn ta'rifida ulug'roq xolg'akim, turklar **meng** ot qo'yupturlar, alar ot qo'yumaydurlar".

"Yeguliklardin agarchi qo'y muchalaridin ba'zig'a ot qo'yupturlar, ammo **orqani** va **oshug'lug'** **ilikni** va **yon so'ngakni** va **qoburg'ani** va **ilikni** va **o'rta ilik** va **bo'g'uzlag'uni** turkcha ayturlar. Va yana ba'zi yemaklardin **qaymog'** va **qatlama** va **bulamog'** va **qurut** va **uloba** va **mantu** va **quymog'** va **urkamochni** ham turkcha ayturlar" [1].

Lakuna hodisasi ma'lum fan yoki soha doirasida turlicha til va madaniyat egalari tomonidan subyektlararo hodisa sifatida, avvalo tarjima nazariyasi va madaniyatlararo kommunikatsiya (o'zaro aloqalar)da o'rganilib, tahlil qilingan [2].

Tilshunoslardan I.A.Sternin va G.V.Выкова muayyan xalqlarning o'zaro aloqalaridagi lakunalarni 2 ta asosiy turga – ichki va tillararo lakunalarga ajratadi [3].

Ular: bir til ichidagi lakunalar, ya'ni ichki lakunalar (*bir tilning o'zida u yoki bu leksik birlik yoki ayni ma'nodagi so'zning yo'qligi*) va tillararo lakunalar (*bir tildagi leksik birlik yoki ayni ma'nodagi so'zning boshqa tilda mavjud emasligi*).

Ta'kidlash o'rinniki, til tizimida bunday birliklarning mavjud bo'lmashligi yuqorida tadbiquotchilarning fikriga ko'ra, ushbu so'z yoki tushunchaning yo'qligi tufayli emas, balki unga bo'lgan kommunikativ ehtiyojning, uni iste'foda etish ehtiyojining yo'qligi sabablidir.

Ko'pchilik tilshunoslar lakuna tushunchasini umumiylar ma'noda uzial aloqaning holati, jarayoni va realiyaga xos xarakterga ega bo'lgan hodisa sifatida ham talqin qilishadi [4].

Shunday qilib, lakuna termini keng ma'noda qiyoslanayotgan til va umummadaniyat vakillarining o'ziga xos milliy xususiyatlarini o'zida mujassam etsa, tor ma'noda bir til yoki tillar doirasida mavjud bo'lmagan so'z yoki leksik birliklarni o'zida qamrab oladi. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, lakuna terminining fonda va falsafada umumnazariy qoidasi hali mavjud emas [5]. Ayniqsa, falsafa tarixida uning turlicha fenomenlari talqin va tadqiq qilingan.

Bu fenomenni anglab olishning murakkabligi shundaki, bir tomondan lakuna o'zida bir til yoki bir necha tillar doirasida mavjud predmetni aks ettirsa, ikkinchi tomondan mavjud bo'lmagan predmet yoki voqe-a-hodisani, ya'ni yo'q ma'noni, tizimli bo'shliq, ochiqlikni aks ettiradi. Shuning uchun ham mazkur fenomen tillar o'rtasida turlicha nuqtayi nazarni yuzaga keltirgan.

Ko'pgina tadqiqotchilar bunday o'zaro nomutanosiblikni, ya'ni bir tilda bo'lib, ikkinchi tilda mavjud bo'lmashlikni nafaqat tilning leksik qatlamida, balki qiyoslanayotgan tillarning grammatik qatlamida ham bo'lishini ta'kidlaydilar.

Masalan, tilshunoslardan V.L.Muravyov fransuz tilida ko'p qo'llaniladigan, umumqabul qilingan mon, ton, son singari sifat so'zlar rus tilida grammatik kategoriya sifatida o'z analogiga ega emasligini qayd etadi [6].

Xuddi shunday tahlillar tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan etnopsixolingoqvistik tadqiqotlarda ham "madaniy hodisa" sifatida ko'zga tashlanadi. Ular badiiy tarjima asarlari asosida til va madaniyatlardagi o'zaro farqni o'rganib chiqib, shunday xulosaga kelishadi:

Badiiy tarjimalarda xato yoki tushunarsiz darajadagi g'ayritabiyy nomutanosibliklar, o'zaro mos kelmaslik tillar fenomenidagi o'ziga xoslikning belgisi yoki o'zga tilning xarakterli psixologik xususiyatidan kelib chiqadi.

Ingliz tilshunosi K.Xeyl tub avstralaliyaliklar tili va etnomadaniyatini ingliz tilida so'zlashuvchilarning tili bilan solishtirar ekan, "gap" ("bo'shliq" ma'nosida) terminidan foydalanadi [7].

Bu o'rinda mavjud bo'limgan kategoriya til va madaniyat o'tasidagi nomutanosiblikning kelib chiqishiga xizmat qilgan. Biroq, mazkur sohalardagi tushunchaning umumiyl nomini yaratish zarurati tug'ilganda, chet ellik tadqiqotchilar umumqo'llanadigan "lakuna" terminini qabul qilishgan.

Taniqli nemis yozuvchisi G.Karau o'z asarlarida nemis tilida so'zlashuvchilarning o'ziga xos madaniyatini saqlagan holda, quydagicha realiyadan lakunar birlik sifatida maqsadli foydalangan:

"Da endlich steht er unter der heißen Dusche, trinkt, schon im Halbschlaf, einen Magenbitter, genießt wie sich alles in ihm entsprannt und löst" [8].

"Potom on stoit pod goryachim dushem, polusonnuyu pet magenbitter i s naslajdeniem otsuzuet vo vsem tele priyatnuyu teplotu i pokoy" [9].

Tarjimasi:

"So'ngra u issiq dush tagida turib, yarim uyquda magenbitter (oshqozon uchun shifobaxsh giyojhaldan tayyorlangan achchiq damlama) ichadi va huzurlanib, butun tanasida yoqimli issiqlik va xotirjamlik his etadi".

Ayrim gumanitar soha tadqiqotchilar ushbu tushunchani qabul qilish masalalari bilan shug'ullanib, uning falsafa, psixologiya, didaktika, madaniyatshunoslik fanlari uchun ahamiyatini ko'rsatishga harakat qilishgan [10].

Terminlardagi, til va madaniyatdagi o'zaro nomuvofiqlik turlicha, ya'ni "ekvivalentiz leksika", "zid so'zlar", "realiyalar"; tilning leksik qatlamiga nisbatan "etnoeydema", "qorong'i joylar", "chuqurcha", madaniyatdagi milliy o'ziga xoslik nuqtayi nazaridan "muloqotga to'siq bo'luvchilar", deb ham atalgan.

Umumiyl ma'noda lakuna ikki yoki undan ortiq lingvomadaniy birliklardagi tushuncha, til va boshqa hissiy holatlarni qiyoslash natijasida yuzaga keladigan nomutanosiblikdir.

Ikki va undan ortiq tillardagi lakunalar tillararo lakunani, ya'ni tashqi lakunani yuzaga keltiradi.

Bir tilda mavjud bo'lgan leksik birlik yoki so'z boshqa tilda mavjud bo'imasligi, shuningdek ayni so'zga ekvivalent birlik yo'qligi sababli o'zga tilda shu so'zni ifodalash imkoniyati bo'lmaydi. Bunday birliklar, odatda izohlash yoki tasvirlash orqali yoki noekvivalent so'zlar orqali ifodalanadi.

Quyida bir necha shunday leksik birliklarni ko'rib chiqamiz:

Abkam – (ar.), "gung", "soqov", "tilsiz", "lol" bo'lib qolish, tildan qolish. Masalan, *Dard meni qilibdur ul sifat abkamki, ayta olmasmen* (A.Navoiy). Abkam termini til va ongri yo'qotish, nutni yo'qotish kasalligi, shunday kasallikning nomi. Kasallik bosh miya faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Abkam termini qadimda kundalik hayotda ko'p qo'llanilgan, biroq bugungi kunda kamdan-kam ishlatiladi.

Bu leksema arabcha, ot so'z turkumiga kiradi, turdosh ot, nima so'rog'iga javob bo'ladi. Qadimda uning arabcha alkan shakli ham ishlatilgan. Alkan so'zi aslida "gung", "soqov" ma'nolarida qo'llanilgan. Masalan,

Do'st zikrini gar etsam ta'til,

O'zga so'zdin tilim alkan bo'lsun (M.Xorazmiy).

Absans – (fr.), ABSENCE – qisqa muddatga, 1-2 sekund hushdan ketish va hodisani eslay olmaslak. Masalan, *Baxtsiz hodisadan so'ng, Salim aka absans holatga tushdi*. Bunday holat turlicha sabablarga ro'y berishi mumkin. Organizmning ichki holatlari, shuningdek tashqi ta'sirlarga ko'ra yuzaga keladi. Kishilarda behushlik, jazava va tutqanoq tutganda kuzatiladigan sezuvchanlikning vaqtincha yo'qolishi *absensiya* deyiladi.

Absans termini fransuz tilidan olingen bo'lib, kasal, ya'ni anomal holatning nomini anglatadi. Harakat bilan bog'liq bo'lganligi sababli ravish so'z hisoblanadi.

Infarkt – (lot. Infarctus – to'ldiraman, tigishtiraman), odam organizmida uzoq vaqt qon yetishmasligi, shuningdek to'satdan qon aylanishining buzilishi natijasida a'zo yoki to'qimaning biror qismi halok bo'lishi, nekrozga uchrashi. Masalan, *Professor Nazarov infarktni boshidan o'tkazganligi bois, odamlar bilan juda ehtiyyot bo'lib, vazminlik bilan munosabat qilardi*. Infarkt deyarli barcha a'zolar (yurak, o'pka, buyrak, taloq, ichaklar, bosh miya va b.)da kuzatiladi.

Koma – (yun. koma – chuqur uyqu), markaziy nerv sistemasi faoliyatining izdan chiqishi, butunlay hushdan ketish, tashqi ta'sirlarga javob bermaslik, organizmning hayot uchun muhim faoliyatlar bosqarilishining buzilishi bilan ifodalanadi. Masalan, *Bola qattiq shamollashi va isitma ko'tarilishi natijasida komaga tushib qoldi*.

Mosharo – (ar.), odamda qon xuruji va harorat chiqqan paytida paydo bo'ladigan virusli, qonli yara, yaraning

turi. Oq'ir oqibatlarga olib boradigan, yuqumli tanosil kasalligi. Masalan, *Madaminxonning a'zoyi-badanini mosharo xuriji egalladi*. Bu termin qon sizishi bilan kechadigan yaraning turini ifodalaydi. Mosharo leksemasi qadimgi manbalarda uchraydi, bugungi kunda deyarli qo'llanilmaydi.

Mo'ndi – (f-t), odam tanasining biror (aslida mavjud bo'lgan) qismini keyinchalik muayyan sabab bilan kesib olib tashlash tufayli mavjud bo'imasligi, yo'qligi. Masalan, *Karomat akaning 50 yoshlardan so'ng ikki qo'li kesilib, mo'ndi bo'lib qoldi*. Mo'ndi termini bugungi kunda ham xalq tilida keng qo'llaniladi. Uning "sopol ko'za", "xumcha" ma'nolari ham mavjud. Masalan, *Bo'zchi belboqqa yolchimas, kulol – mo'ndiga* (Xalq maqoli).

Bu ot shunday kasal odamga nisbatan ishlatilganda, ma'no ko'chadi, sifatlashadi va sifat so'z vazifasini bajaradi, belgi ma'nosiga ega bo'ladi. Kichkina, kalta, xumchaga o'xshash, yumaloq odamlarga nisbatan ham mo'ndi so'zi ishlatiladi.

O'zbek tilidagi tashqi lakunar birliklarni aniqlash va o'rganish nafaqat tilshunoslik sohasi, balki tibbiyot sohasi ilm-fani uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki shunday leksik birliklar asosida, dastlab, o'zbek tili va boshqa tillarga oid tibbiy terminlarining *lakunalari lug'atni*, so'ngra ularning elektron korpusini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Xulosha:

1. Tashqi lakunar birliklar biror bir tilda boshqa tildagi tushunchaning so'z ko'rinishidagi ifodasi mavjud bo'imasligi natijasida yuzaga keladi. Aslida bu tushuncha boshqa til yoki madaniyatda ham mavjud bo'lib, biroq mazkur tushuncha leksik birlik sifatida o'sha madaniyatning tilida vogelanmaydi.

2. Lakuna faqat tor ma'noda, tilning leksik qatlami doirasida tushuniladi. Umuman, lakuna tushunchasini til birliklarining barcha sohasiga tegishli fenomen, deb qarash maqsadga muvofiq.

3. Tibbiy terminlardagi tashqi lakunar birliklar o'zbek tiliga lotin, arab, yunon, tojik va fransuz tillaridan o'zlashgan (*xususan, infarkt, abkam, koma, mosharo, mo'ndi, absans kabi*) so'zlarda namoyon bo'ldi. Ularda, asosan, ot, ravish, sifat so'z turkumlari ishtirok etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. MAT. 16-tom. – Т.: 2000, 16-17; 21
2. Быкова Г.В. Лакунарность как категория лексической системологии: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – Воронеж, 1999. – 32 с.
3. Стернин И.А., Быкова Г.В. Концепты и лакун. // Методы исследования языкового сознания. – М.: 1998. – С. 55-67.
4. Влахов С. Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: 1980. – С. 85.
5. Данильченко Т.Ю. Лакуны: философский и теоретико-культурный аспекты). // Автореф. дисс. на соискание уч.степени док. филос. наук. – Краснодар: 2010
6. Муравьев В.Л. Лексические лакуны (на материале лексики французского и русского языков). – Владимир: СГПИ, 1975. – 148 с.
7. Hale K. Gaps in grammar and culture. // Linguistics and anthropology: in honor of C.F. Volgelin-Jisse. Univ. Press, 1975. – Р. 77-98.
8. Karau G. Go oder Doppelspiel im Untergrund. Roman. Militärverlag der DDR, 1982. 288 s.
9. Карап Г. Двойная игра: Роман. – М.: Воениздат, 1991. – 312 с.
10. Данильченко Т.Ю. Лакуны: философский и теоретико-культурный аспекты. Автореф. дисс. на соискученой степени доктора филос. наук. – Москва: 2010.
11. Suyunov B.T. Lakunalarni tibbiy terminlarga tatbiq etish masalasi. Sentral asian research journal for interdisciplinary studies (CARJIS). Universal Impact Factor: 7,1. DOI: 10.24412/2181-2454-2022-1. ISSN:2181-2454. VOLUME 2. ISSUE 1. 2022